



FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-fevral






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligida ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8429** tani tashkil etib, 2022- yil 1- martga nisbatan **677** taga kamaygan (o'sish sur'ati **94,0 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **151** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **8278** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **3 238,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **102,0 %**ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **309,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **164,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 682,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **98,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **246,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **98,2 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	3 238,9	100,2	309,4	164,8	2 929,5	98,1
Shaharlar						
Farg'ona	601,2	106,4	124,1	241,7	477,1	92,9
Qo'qon	621,2	103,6	48,3	167,1	572,9	100,4
Quvasoy	44,2	101,9	2,0	34,6	42,3	112,0
Marg'ilon	636,7	102,3	13,7	153,4	623,0	101,5
Tumanlar						
Oltiariq	116,3	100,5	5,5	101,7	110,8	100,4
Qo'shtepa	88,2	99,8	1,8	116,3	86,4	99,5
Bag'dod	81,3	100,1	2,9	71,4	78,4	101,6
Buvayda	132,2	101,9	7,1	191,9	125,1	99,2
Beshariq	96,5	100,8	3,4	115,0	93,1	100,4
Quva	138,4	100,3	3,1	63,6	135,3	101,6
Uchko'prik	173,6	100,5	82,5	154,9	91,1	76,2
Rishton	94,6	99,7	3,6	102,0	91,1	99,6
So'x	39,3	95,3	0,6	94,1	38,7	95,4
Toshloq	67,8	95,0	1,4	47,2	66,4	97,0
O'zbekiston	76,1	95,7	2,9	96,8	73,2	95,6
Farg'ona	75,0	95,5	1,6	108,6	73,4	95,3
Dang'ara	65,0	101,7	2,5	106,1	62,5	101,5
Furqat	51,6	96,3	1,2	81,7	50,3	96,7
Yozyovon	39,8	99,9	1,3	76,2	38,4	101,0

2023-yilning yanvar-fevral oylarida 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**106,4 %**), Qo'qon (**103,6**) va Marg'ilon sh (**102,3**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-fevral, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **111,5 %** ni yoki **2911,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)



■ (2022-yil, 2023-yil yanvar-fevral oylari)

2023- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.



	JAMI mlrd. so'm	Jamiga nisbatant ovar aylanma si ulushi (foizda)
Farg'ona viloyati	3 238,9	100,0
Farg'ona sh.	601,2	18,6
Qo'qon	621,2	19,2
Quvasoy	44,2	1,4
Marg'ilon	636,7	19,7
Tumanlar		
Oltiariq t.	116,3	3,6
Qo'shtepa	88,2	2,7
Bag'dod	81,3	2,5
Buvayda	132,2	4,1
Beshariq	96,5	3,0
Quva	138,4	4,3
Uchko'prik	173,6	5,4
Rishton	94,6	2,9
So'x	39,3	1,2
Toshloq	67,8	2,1
O'zbekiston	76,1	2,3
Farg'ona	75,0	2,3
Dang'ara	65,0	2,0
✓ Furqat	51,6	1,6
Yozyovon	39,8	1,2

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Eng yuqori hajm, % da

1 Marg'ilon – 19,7

2 Qo'qon – 19,2

3 Farg'ona – 18,6

Eng quyisi hajm, % da

1 Yozyovon – 1,2

2 So'x – 1,2

3 Quvasoy - 1,4

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Marg'ilon shahari **19,7** % bilan **636,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyisi ulush esa, Yozyovon tumani **1,2** % bilan **39,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 929,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,9 %**ga kamaydi Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,4 %**ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **64,8 %**ga o'sdi va **309,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **9,6 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x (98,5 %)**, **Qo'shtepa (98,0 %)** va **Farg'ona (97,9 %)** tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **9,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik** tumani (**47,5 %**), **Farg'ona (20,6 %)** va **Qo'qon (7,8 %)** shaharlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'ona viloyati	822,8	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	1988,0	104,3
Qo'qon	2372,1	102,1
Quvasoy	451,8	99,9
Marg'ilon	2603,0	100,7
Tumanlar		
Oltiariq	525,3	98,3
Qo'shtepa	438,7	97,3
Bag'dod	360,2	98,0
Buvayda	553,7	99,6
Beshariq	408,1	99,2
Quva	515,7	98,5
Uchko'prik	722,9	98,2
Rishton	450,1	97,8
So'x	483,2	93,7
Toshloq	320,0	92,9
O'zbekiston	306,0	94,0
Farg'ona	335,6	93,4
Dang'ara	354,9	99,2
Furqat	419,0	94,2
Yozyovon	342,7	97,7


2023- yilning yanvar-fevral holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **822,8** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **100,0 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Marg'ilon (2 603,0 ming so'm) Qo'qon(2 372,1 ming so'm), va Farg'ona (1 988,0 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **246,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **98,2 %**ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **141,7** mlrd. so'mni (**113,5 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **104,9** mlrd so'mni tashkil etdi (**83,0 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	246,6	98,2	141,7	113,5	104,9	83,0
Shaharlar						
Farg'ona	15,9	121,6	14,3	147,2	1,6	47,4
Qo'qon	21,2	92,7	14,5	160,3	6,7	48,3
Quvasoy	6,3	67,8	2,4	75,5	3,9	63,7
Marg'ilon	34,2	133,4	24,5	210,4	9,6	69,0
Tumanlar						
Oltiariq	6,7	46,0	2,3	26,7	4,4	74,3
Qo'shtepa	22,7	280,9	15,1	284,7	7,7	273,9
Bag'dod	5,7	64,5	2,5	136,4	3,2	45,6
Buvayda	33,4	150,8	24,6	345,4	8,8	58,8
Beshariq	24,7	143,9	8,8	147,9	15,8	141,8
Quva	18,3	91,0	13,1	313,5	5,2	32,4
Uchko'prik	9,1	123,9	1,9	57,1	7,2	178,3
Rishton	10,4	68,3	0,7	10,9	9,7	110,7
So'x	3,3	89,4	1,9	106,6	1,4	73,1
Toshloq	6,8	342,9	1,8	203,5	5,0	454,1
O'zbekiston	6,5	94,2	3,2	184,9	3,3	63,7
Farg'ona	9,8	44,4	8,3	46,2	1,6	36,9
Dang'ara	1,0	7,6	0,5	4,4	0,5	43,3
Furqat	0,8	34,7	0,8	34,7	0,0	-
Yozyovon	9,8	59,1	0,4	3,3	9,4	185,6

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **141,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**59,3** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 59,3
	Non va non mahsulotlari 7,3
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 19,1
	Tovuq go‘shti 8,5
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) 12,1
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 3,1
	Tuxum 7,2
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 4,0
	Ziravorlar 4,9
	Tuzlamalar 2,8
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 1,3
	Nooziq-ovqat tovarlari 12,1

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **104,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **84,9** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **17,5** mlrd. so‘mni, otlar – **1,6** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar 44,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar 21,1
	1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar 18,9
	Qo‘ylar 17,0
	Otlar 1,6
	Echkilar 0,5
	Kurka, o‘rdak, g‘oz 0,3
	Tovuqlar 0,4
	Quyonlar 0,1
	Qushlar 0,1

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 057** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – mart holatiga nisbatan **401** taga kamaygan va **83,7 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **4** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 053** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-fevral oyilarda chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,4 %** ni tashkil etib, **78,1** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,4 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **93,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	78,1	97,6	5,4	191,5	72,7	94,2
Shaharlar						
Farg'ona	33,4	107,3	5,4	191,5	27,9	98,8
Qo'qon	10,7	107,1	-	-	10,7	107,1
Quvasoy	3,6	109,1	-	-	3,6	109,1
Marg'ilon	9,3	104,2	-	-	9,3	104,2
Tumanlar						
Oltiariq	1,4	77,0	-	-	1,4	77,0
Qo'shtepa	0,8	96,8	-	-	0,8	96,8
Bag'dod	0,9	67,2	-	-	0,9	67,2
Buvayda	1,5	104,2	-	-	1,5	104,2
Beshariq	2,2	109,6	-	-	2,2	109,6
Quva	2,6	74,4	-	-	2,6	74,4
Uchko'prik	1,5	62,6	-	-	1,5	62,6
Rishton	3,3	88,9	-	-	3,3	88,9
So'x	0,3	26,8	-	-	0,3	26,8
Toshloq	1,2	61,8	-	-	1,2	61,8
O'zbekiston	0,9	64,2	-	-	0,9	64,2
Farg'ona	1,6	91,4	-	-	1,6	91,4
Dang'ara	1,6	93,1	-	-	1,6	93,1
Furqat	0,6	64,8	-	-	0,6	64,8
Yozyovon	0,8	104,3	-	-	0,8	104,3

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **417,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **23,0 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **165,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **74,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **251,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **76,4 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'ona viloyati	417,1	77,0
Shaharlar		
Farg'ona	126,6	50,2
Qo'qon	181,4	95,2
Quvasoy	0,5	84,3
Marg'ilon	38,0	161,4
Tumanlar		
Oltiariq	0,7	114,9
Qo'shtepa	1,2	98,2
Bag'dod	0,5	93,2
Buvayda	2,1	103,4
Beshariq	0,7	93,6
Quva	1,3	115,3
Uchko'prik	1,8	64,4
Rishton	0,5	142,9
So'x	0,2	88,8
Toshloq	25,4	103,1
O'zbekiston	0,5	104,1
Farg'ona	1,3	103,8
Dang'ara	12,3	103,2
Furqat	3,6	106,5
Yozyovon	18,7	79,2

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**181,4** mlrd. so'm), Farg'ona (**126,6** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**38,0** mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so‘mda



16,1

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 339,8** mld. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **5,9 %** ga o‘sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 230,2** mld. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **101,0 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **91,8 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Dang'ara tumani (**15,3 b.**), Oltiariq (**6,7 b.**) va Bag'dod (**5,6 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **4297** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mart holatiga nisbatan **39** taga kamaygan, o'sish sur'ati **100,9 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **18** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **4279** tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 339,8	105,9	109,6	237,0	1 230,2	101,0
Shaharlar						
Farg'ona	244,3	139,1	98,4	260,9	145,9	105,8
Qo'qon	81,7	119,3	7,4	95,3	74,3	122,3
Quvasoy	40,0	101,7	-	-	40,0	101,7
Marg'ilon	112,7	109,1	-	-	112,7	109,1
Tumanlar						
Oltiariq	43,7	118,7	2,8	6,7 b	40,8	112,3
Qo'shtepa	16,0	98,7	-	-	16,0	98,7
Bag'dod	27,0	115,6	0,1	5,6 b	26,8	115,1
Buvayda	25,7	107,9	-	-	25,7	107,9
Beshariq	37,9	88,2	-	-	37,9	88,2
Quva	37,1	110,0	-	-	37,1	110,0
Uchko'prik	37,3	69,6	-	147,2	37,3	69,6
Rishton	19,4	115,7	0,2	172,7	19,2	115,4
So'x	10,6	89,5	-	51,9	10,6	89,7
Toshloq	493,8	97,4	-	-	493,8	97,4
O'zbekiston	20,1	99,5	0,1	74,4	20,0	99,6
Farg'ona	21,2	91,8	0,3	-	20,9	90,4
Dang'ara	34,3	104,3	0,1	15,3 m	34,2	103,9
Furqat	16,1	100,4	-	-	16,1	100,4
Yozyovon	21,1	105,4	0,1	137,9	20,9	105,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi**
Тел. 71-202-80-44 (45)